«BAZA TEST». 2012-2018 (2-qism)

1. Jazoirda 1912-yilda «Yosh Jazoir» partiyasi tuzildi. Bu partiya qanday talablarni qo‘ydi?
1) soliq olishda jazoirliklar va yevropaliklarni tenglashtirish; 2) fransuzlar hukmronligini tugatish; 3) xalq maorifini kengaytirish; 4) arablar uchun saylanadigan lavozimlarni ko‘paytirish; 5) konstitutsiyaviy monarxiyani o‘rnatish.
A) 2, 3, 5 B) 1, 2, 5 C) 2, 4, 5 **D) 1, 3, 4**

2. Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo‘zg‘olon bo‘lgan joylar to‘g‘ri berilgan javobni aniqlang.
1) Shosh; 2) Chag‘oniyon; 3) Farg‘ona; 4) Kesh; 5) Buxoro.
A) 1, 2, 4 **B) 1, 3, 5** C) 1, 4, 5 D) 2, 3, 4

3. Otsiz qaysi hududlarda Xorazmshohlar davlatining poydevorini barpo etgan?
A) Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimi, Janubi-sharqiy Qozog‘iston va Yettisuv hududlarida
B) Amudaryo va Sirdaryo oralig‘idagi yerlarda
C) Kaspiy dengizi sohillaridan to Sirdaryoning o‘rta oqimiga qadar bo‘lgan yerlarda
D) G‘arbiy Xuroson, Movarounnahr va Sharqiy Turkistonni o‘z ichiga olgan ulkan hududlarda

4. Shayboniyxon o‘limidan so‘ng taxtga o‘tirgan shaxsni aniqlang.
A) Abu Said **B) Ko‘chkunchi Sulton**
C) Ubaydullaxon D) Suyunchxo‘ja Sulton

5. Marv, Nishopur va Mashhad kabi shaharlarni egallagan hukmdorni aniqlang. (XVI asr)
A) Muhammad Shayboniyxon **B) Abdullaxon II**
C) Ko‘chkunchixon D) Abu Said ibn Ko‘chkunchixon

6. Qo‘qon xonligida Abdurahimbiy (a) va Buxoro xonligida Imomqulixon (b) hukmronligidan so‘ng taxtga kelgan hukmdorlarni belgilang.
1) Umarxon; 2) Abdukarimbiy; 3) Nodir Muhammad; 4) Subhonqulixon.
A) a - 1, b - 4 B) a - 1, b - 3 C) a - 2, b - 4
D) a - 2, b - 3

7. N.Korolkov 1898-yilda vaqtinchalik Turkiston general-gubernatori lavozimiga tayinlanishidan avval qanday lavozimda faoliyat yuritgan?
A) Turkiston harbiy okrugi boshlig‘i
B) Sirdaryo viloyati gubernatori
C) General-gubernator Devoni boshlig‘i
D) Farg‘ona viloyati gubernatori

8. To‘g‘ri ma’lumotni toping.
A) Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xojayev, Sadriddin Ayniy jadidlarning Toshkentdagi (Buxoro) namoyandalari hisoblanadi
B) Hamza, Obidjon Mahmudov, Is’hoqxon Ibrat, Abdulhamid Cho‘lpon jadidlarning Buxorodagi (Farg‘ona) namoyandalari hisoblanadi
C) Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Asadullaxojayev jadidlarning Farg‘ona (Toshkent) vodiysidagi namoyandalari hisoblanadi
D) Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy Azjiy jadidlarning Samarqanddagi namoyandalari hisoblanadi

9. 1920-yil Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganda birinchi hukumat raisligiga saylangan shaxsni aniqlang.
A) Nazir Sholikorov B) Bobooxun Salimov
C) Husaynbek Matmurodov **D) Polvonniyoz Yusupov**

10. 1868-yilda O‘rta Osiyoning ikki davlati – Qo‘qon xonligi va Buxoro amirligi … .
A) Rossiya imperiyasi bilan shartnoma imzoladi
B) Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy kuchlarini birlashtirdi
C) Rossiya imperiyasming Xiva xonligiga yurishiga qarshi ittifoq tuzdi
D) Rossiya imperiyasiga qarshi Buyuk Britaniya bilan shartnoma imzoladi

11. Suriya va Eron istilo qilingach arab zodagonlari bosib olingan yerlarni taqsimlash taklifi bilan qaysi xalifaga murojaat qilganlar?
A) xalifa Umarga B) xalifa Abu Bakrga
C) xalifa Usmonga D) xalifa Aliga

12. 1895-yilda tuzilgan Simonoseki sulhiga ko‘ra, Yaponiya…
1) Xitoy hududida sanoat korxonalarini qurish va ulardan foydalanish huquqini oldi; 2) Xitoyga katta miqdorda tovon to‘lashga majbur bo‘ldi; 3) Lyadun, Tayvan, Penxu orollarini qo‘lga kiritdi; 4) Uzoq Sharqda ustunlikni Rossiyaga berib qo‘ydi; 5) Xitoyni katta miqdorda tovon to‘lashga majbur qildi; 6) Koreya yarimorolini harbiy kuch bilan o‘ziga qo‘shib oldi.
A) 1, 2, 4 B) 4, 5, 6 **C) 1, 3, 5** D) 2, 4, 6

13. Qaysi davlatda xo‘jayi buzruk unvoniga ega bo‘lgan shaxs devonxona ishlariga ham mas’ul bo‘lgan?
A) Somoniylar davlatida
B) Qoraxitoylar davlatida
C) Qoraxoniylar davlatida
D) Xorazmshohlar davlatida

14. 1702-yil taxtga o‘tirgan Ubaydullaxon II ning asosiy maqsadi … .
A) siyosiy tarqoqlikni tugatish edi
B) tashqi siyosatni mustahkamlash edi
C) mamlakat sarhadlarini mumkin qadar kengaytirish edi
D) pul islohoti o‘tkazish edi

15. Rossiya Imperiyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligini o‘z protektoratiga aylantirgan yillarni belgilang.
A) 1868- va 1873-yillar B) 1868- va 1876-yillar
C) 1873- va 1876-yillar D) 1865- va 1876-yillar

16. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishlarning ikkinchi bosqichi qaysi voqeadan so‘ng yakunlangan?
A) Toshkent shahri bosib olinib, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach
B) Qo‘qon xonligi tugatilib, uning o‘rnida Turkiston general-gubernatorligiga bo‘ysunuvchi Farg‘ona viloyati tashkil etilgach
C) Xiva xoni va Turkiston general-gubernatori Gandimiyon shartnomasini imzolagach
D) Amir Muzaffar o‘z mag‘lubiyatini tan olib, fon Kaufmannning Turkiston general-gubernatorligining yangi chegaralari haqidagi taklifni qabul qilgach

17. 1918-yil mart oyida «Yosh buxoroliklar»ning ayovsiz qirg‘in qilinishiga asosiy sabab nima bo‘ldi?
A) F.I.Kolesovning Kogon temir yo‘li bo‘ylab ochiq harbiy hujum uyushtirishi
B) Farg‘ona milliy-ozodlik barakatini boshlanishi
C) Turkiston ASSRning tashkil topishi
D) Turkiston muxtoriyati hukumatining ag‘darilishi

18. Dastlabki temirdan yasalgan zeb-ziynat buyumlari mashhur Maykop qo‘rg‘oni bilan birga vana qaverdan topilgan?
A) Misrdan B) Hindlstondan C) Erondan
D) Old Osiyodan

19. Mamlakat hayotiga oid biron bir muhim masalani hal etish uchun oliy vakolat berilgan va shu tufayli parlament vazifasini ham bajaruvchi majlis ma’nosini bildiruvchi atamani aniqlang.
A) Kommuna **B) Ta’sis majlisi** C) Referendum
D) Assambleya

20. Hukumatning juda muhim voqea munosabati bilan xalqqa qilgan yozma murojaati nima deb ataladi? ‘
A) nota **B) manifest** C) memorandum
D) traktat

21. Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasiga ko‘ra, prezident vakolatlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
1) vazirlarni tayinlash; 2) Senat a’zolarini tayinlash;
3) Respublika nomidan tashqi siyosat yuritish;
4) Parlamentga boshchilik qilish; 5) urush e’lon qilish va sulh tuzish; 6) umumiy avf e’lon qilish.
A) 1, 3, 5, 6 B) 2, 3, 4, 6 C) 2, 4, 5, 6
D) 1, 4, 5, 6

22. Zardusht so‘zi turli tillarda yana qanday ataladi?
A) Zaradushtra, Bashoratchi B) Zardo‘st, Zaroastr
C) Zaratushtra, Zoroastr D) Munajjim, Bashoratchi

23. Quyidagi qaysi dinda inson vafot etganida marhumlarning marhum jasadini yerga ko‘mish ham, olovda kuydirish ham, suvga tashlab yuborish ham taqiqlangan?
A) buddizmda B) xristianlikda **C) zardushtiylikda**
D) hinduiylikda

24. 1402-yilda Turkiya sultoni Boyazid I Yildirim tormor etilgandan so‘ng … Amir Temurning oltindan haykalchasini quydirib, ostiga “Yevropa xaloskoriga” deb yozib qo‘yishgan.
A) fransuzlar B) ispanlar C) portugallar
D) inglizlar

25. Xivaning XVI asrdan 1812-yilgacha bo‘lgan tarixini qamrab olgan “Firdavs ul-iqbol” asari muallifini toping.
A) Ogahiy **B) Munis** C) Abulg‘oziy Bahodirxon
D) Hasanbek Rumlu

26. Toshkent shahri darvozalari nomlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.
A) Sag‘bon, Qorasaroy, Shayxontohur
B) Chig‘atoy, Kamolon, Sebzor
C) Qo‘ymas, Labzak, Qo‘qon
D) Taxtapul, Sebzor, Ko‘kcha

27. Quyidagi voqealarning qaysilari O‘zbekistonda birinchi besh yillik davriga to‘g‘ri keladi?*
1) O‘zbekiston SSR MIKning “Suv va suvni natsionalizatsiya qilish to‘g‘risida” dekreti qabul qilindi;
2) O‘zbekiston partiya va hukumatining «Kollektivlashtirish va quloq xo‘jaliklarini tugatish to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi;
3) O‘zbekiston davlat apparatini O‘zbeklashtirish Markaziy komissiyasi faoliyati to‘xtatildi;
4) O‘zbekiston SSR Fanlar komiteti SSSR Fanlar akademiyasining O‘zbekiston SSR filiali (O‘zFAN)ga aylantirildi;
5) Toshkentda ilk marta trolleybuslar qatnay boshladi;
6) arab alifbosidan lotin yozuviga o‘tildi
A) 1, 3, 5 B) 1, 3, 4 C) 1, 5, 6 **D) 2, 3, 6**

28. Quyida berilgan voqealar to‘g‘ri xronologik ketmaketlikda ko‘rsatilgan javobni belgilang.
1) Alarix boshchiligidagi gotlar Rimni qurshab oldilar;
2) Rim imperiyasi G‘arbiy va Sharqiy qismlarga ajralib ketdi; 3) Imperator Konstantin Bosfor bo‘g‘ozidagi Vizantiy shahrini Rim imperiyasining poytaxti deb e’lon qildi.
A) 1, 2, 3 B) 2, 1, 3 **C) 3, 2, 1** D) 1, 3, 2

29. Yaponiyada Syogun hokimiyatini ag‘darish uchun ommaviy harakatning asosiy kuchini ... (1) tashkil etib, ularga qishloq va shaharlarning ... (2) qo‘shildi.
a) kambag‘al qismi; b) boy hamda o‘rta tabaqalari;
c) samuraylar; d) xankelar.
A) 1-a; 2-d **B) 1-c; 2-b** C) 1-d; 2-c D) 1-a; 2-b

30. 1785-yilda “Qonunlarning buyuk to‘plami” deb nomlangan hujjat qabul qilingan davlatni aniqlang.
A) Korevada B) Xitoyda C) Yaponiyada
D) Turkiyada

31. Misrdagi «Xizb ul-Vatan», Jamoliddin al-Afg‘oniy, partiyasining gazetasi qanday nomlangan?
A) «Al-Ansor» B) «Al-Vatan» **C) «Al-Liva»**
D) «Al-Arab»

32. Millatlar Ligasining asosiy vazifasi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?
A) Versal shartnomasi shartlarining bajarilishini nazorat qilish
B) Xalqaro aloqalar va savdoni rivojlantirish
C) Yevropada Antanta manfaatlarini ta’minlash
D) tinchlikni va xalqaro xavfsizlikni ta’miniash

33. Quyida keltirilganlar orasidan Abu Mansur al-Moturidiy qalamiga mansub bo‘lgan asarlarni belgilang.
1) “Astronomiya asoslari”; 2) “Al-Jome’ as-sahih”;
3) “Ta’vilot ahl as-sunna”; 4) “Zij”; 5) “Kitob at-Tavhid”
A) 1, 4 B) 1, 3 C) 2, 5 **D) 3, 5**

34. Buxoro xonligining Rossiya bilan munosabatlari qachondan rivojlana bordi?
A) XVI asrning birinchi yarmidan
B) XV asrning ikkinchi yarmidan
C) XVI asrning ikkinchi yarmidan
D) XVII asrning birinchi yarmidan

35. 1917-yil Buxoro amiri islohotlar to‘g‘risida farmon e’lon qilganida uni vazmin, bosiqlik bilan kutib olgan «yosh buxoroliklar» vakillarini belgilang.
A) Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo‘ja
B) Mahmudxo‘ja Behbudiy, Mullaxon o‘g‘li Mirzo G‘ulom
C) Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Usmon Xoja
D) Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fayzulla Xo‘jayev, Abdurauf Fitrat

36. Quyidagi qaysi jang tarixga “xalqlar urushi” nomi bilan kirgan?*
A) Borodinodagi jang (1812)
B) Leypsigdagi jang (1813)
C) Vaterloodagi jang (1815)
D) Sedandagi jang (1870)

37. Fransiyada 1795-yilgi konstitutsiyaga ko‘ra, ijro hokimiyatini bajaruvchi Direktoriya … .*
A) besh nafar kishidan iborat bo‘lib, umumiy saylov asosida saylangan
B) uch nafar kishidan iborat bo‘lib, qirol tomonidan tayinlangan
C) uch nafar kishidan iborat bo‘lib, Besh yuzlar kengashida ovoz berish orqali saylangan
D) besh nafar kishidan iborat bo‘lib, Oqsoqollar kengashi tomonidan tayinlangan

38. Yuqori Peru mustaqillikka erishguniga qadar qaysi davlat mustamlakasi edi?
A) Portugaliya B) Fransiya **C) Ispaniya**
D) Buyuk Britaniya

39. Italiya 1900-yilda Fransiyaning Marokashga nisbatan huquqlarini tan olishi evaziga quyidagi qaysi davlatga daxldor huquqqa ega bo‘ldi?
A) Jazoir B) Sudan C) Efiopiya **D) Liviya**

40. Ma’lumki, Turkiyada ruhoniylarning “Ittihodi Muhammadi» partiyasi tarafdori bo‘lgan harbiylar 1909-yil 13-aprelda isyon ko‘tardilar. Isyonchilar sultonga qanday talab qo‘ygan edilar?
1) parlamentni bekor qilish; 2) konstitutsiyani bekor qilish; 3) shariatni tiklash; 4) sulton hokimiyatini tiklash; 5) konstitutsiyani qayta tiklash
A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 5 **D) 1, 3, 4**

41. Quyidagi qaysi hudud Salavkiylar davlati tarkibiga kirmagan?
A) Misr B) Mesopotamiya C) Eron D) Parfiya

42. Xorazm yunon manbalarida nima deb nomlangan?
A) Xorasmiya B) Xvarazmish C) Xorazm
D) Xvarizam

43. Shohruh Mirzo tomonidan Hisori Shodmon yerlari kimga berilgan edi?
A) Muhammad Jahongirga
B) Amirak Ahmadga Farg‘onadan O‘zgangacha
C) Amir Abdulholiqqa D) Amir Xudoydotga Turkiston

44. Qo‘qon xonligida XIX asr 50-60-yillarida xalq ommasining noroziligiga nimalar sabab bo‘lgan?
1) Rossiya bilan urush natijasida ko‘rilgan zararlar xalq ommasi zimmasiga tushishi; 2) Xudoyorxonning Makkaga ketishi; 3) soliq va majburiyatlarning oshirilishi; 4) Farg‘ona viloyatining tashkil etilishi; 5) Andijon uchun jangda xon qo‘shinlarining mag‘lubiyatga uchrashi.
A) 2, 3 **B) 1, 3** C) 1, 5 D) 2, 4

45. XX asrning 20-yillarida Sovet hukumati amalga kiritgan qaysi siyosatning muhim bo‘g‘inlari xususiy mulkka ega bo‘lish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, korxonalarni xo‘jalik hisobiga o‘tkazish, ijaraga olish va yollanma mehnatning cheklanishini bekor qilishdan iborat bo‘lgan?
A) Jadallashtirish B) Harbiy kommunizm
C) Qayta qurish **D) Yangi iqtisodiy siyosat**

46. Mil.avv.202-yilda Karfagenning buyuk sarkardasi Gannibal qo‘shinlari qayerda tor-mor etilgan?
A) Korsika orolida B) Kann yaqinida
C) Rim yaqinida **D) Zama yaqinida**

47. Rohib olimlar – Kirill va Mefodiy faoliyati bilan bog‘liq to‘g‘ri ma’lumotlarni toping.
1) IX asr o’rtalarida yunon alifbosi asosida slavyan yozuvini yaratganlar; 2) XII asr boshlarida rim alifbosi asosida slavyan yozuvini yaratganlar; 3) G‘arbiy slavyanlar orasida xristianlikni keng targ‘ib etganlar; 4) Kiyevda xristian ruhoniylari tayyorlaydigan o‘quv yurti tashkil etganlar; 5) Novgorodda uch yuz ruhoniy tayyorlaydigan bilim yurtini ochganlar.
A) 1, 3 B) 3, 5 C) 2, 4 D) 1, 4

48. Qaysi Safaviy hukmdor muntazam qo‘shin barpo etgan?
A) Nodirshoh **B) Abbos I** C) Sulton Husayn
D) Ismoil I Safaviy

49. 1830-yilda qaysi mamlakatda yangi parlamentga o‘tkaziladigan saylovda saylov huquqlarining cheklanishi inqilob boshlanishiga sabab bo‘ldi?
A) Gollandiyada B) Ispaniyada **C) Fransiyada**
D) Buyuk Britaniyada

50. 1895-yilda qaysi shaharda «Ishchilar sinfini ozod qilish uchun kurash ittifoqi» tuzilgan?
A) Moskvada **B) Peterburgda** C) Kiyevda
D) Rigada

51. Jaloliddin Manguberdining qaysi davlatlar hukmdorlarini mo‘g‘ullarga qarshi kurash yo‘lida birlashtirish harakatlari zoye ketgan?
A) Bog‘dod, Jazira, Basra, Kirmon
B) Ko‘niya, Jazira, Damashq, Misr
C) Ko‘niya, Sultoniya, Misr, Dehli
D) Bog‘dod, Misr, Damashq, Dehli

52. Quyidagi ma’lumotlarni yozib qoldirgan shaxsni aniqlang. «Xiva aholisi o‘zining mashaqqatli mehnati bilan cho‘l-u biyobonni hosildor o‘lkaga aylantirgan. Atrof ekinzor maydon - bug‘doyzor, sholipoya, uzumzor va shirin-shakar bog‘»
A) N.Ignatev **B) N.Muravyov** C) N.Vasilevskiy
D) G.Danilevskiy

53. Quyidagi qo‘zg‘olonlarning boshlangan vaqti Turkistonda qaysi general-gubernatorning boshqaruvi davriga to‘g‘ri keladi?
1) Mingtepadagi Yetimxon qo‘zg‘oloni; 2) Andijondagi Darvishxon qo‘zg‘oloni; 3) Andijondagi Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni;
a) K.P.fon Kaufman; b) G.Rozenbax; c) A.Vrevskiy
A) 1-a, 2-c, 3-b B) 1-b, 2-a, 3-c C) 1-b, 2-c, 3-a
D) 1-a, 2-b, 3-c

54. To‘g‘ri ma’lumot berilgan javobni toping.
A) mil.avv. 44-yilda Yuliy Sezar Birinchi konsul unvonini oldi
B) 395-yilda Attila boshchiligidagi xunnlar Italiyaga hujum qildi
C) 476-yilda Attila boshchiligidagi xunnlar Rimga bostirib kirdi
D) 410-yilda Rimni Alarix boshchilidagi gotlar qurshab oldi

55. Gotika me’morchiligidagi cherkovlarda derazalar orasida rasmlar chizish uchun joy qolgan, derazalarga oddiy oynalar o‘rniga tiniq rangli shishalardan yasalgan surat yoki bezaklar solingan. Ular qanday atalgan?
A) freska B) miniatyura **C) vitrajlar**
D) panno

56. AQSHda trestlarga qarshi qonun qabul qilingan yilda quyidagi qaysi davlatda, parlament tarqatib yuborilgan?
A) Avstriya-Vengriyada B) Fransiyada
C) Germaniyada D) Buyuk Britaniyada

57. XX asrning 90-yillarida qaysi davlatda “Shimol Ligasi”, “Milliy alyans” nomli partiyalar faoliyat ko‘rsatgan?
A) Germaniya **B) Italiya** C) Buyuk Britaniya
D) Fransiya

58. X asrdan boshlab islom dinini qabul qilgan ko‘chmanchi qabilani aniqlang.
A) jung‘orlar B) qipchoqlar C) mo‘gullar
D) o‘g‘uzlar, qarluqlar

59. Mashhur xattot Hamadoniy tomonidan 1556-yilda Eshmuhammadxon uchun ko‘chirib berilgan asar nomini aniqlang.
A) “Boburnoma” **B) “Shohnoma”**
C) “Zafarnoma” D) “Shayboniynoma”

60. Sin imperiyasi Sharqiy Turkistonni o‘ziga bo‘ysundirib Qo‘qon xonligini kuchsizlantirishga uringan yillarda Qo‘qon xonligida kim hukmronlik qilayotgan edi?
A) Abdukarimbiy B) Olimxon **C) Erdonabiy**
D) Norbo‘tabiy

61. Eron shohi Nodirshoh Xivani bo‘ysundirgan paytda Xiva xonligini kim boshqarayotgan edi?
A) Asfandiyorxon **B) Elbarsxon** C) Sherg‘ozixon
D) Anushaxon

62. Turkistonda qaysi yillarda tatar va ozarbayjon teatri jamoasi o‘z gastrollarini uyushtirgan?
A) 1910-1912-yillarda B) 1913-1914-yillarda
C) 1909-1910-yillarda D) 1914-1915-yillarda

63. Rossiya bosqini davrida tashkil etilgan quyidagi ma`muriy birliklar qaysi davlatlar hududlari hisobiga vujudga keltirilgan?
1) Zarafshon okrugi; 2) Farg‘ona viloyati;
3) Amudaryo bo‘limi.
a) Xiva xonligi; b) Qo‘qon xonligi; c) Buxoro amirligi.
A) 1 - a; 2 - c; 3 - b B) 1 - b; 2 - a; 3 - c
C) 1 - a; 2 - b; 3 - c **D) 1 - c; 2 - b; 3 - a**

64. Bag‘dod xalifasi Nosir tomonidan Jaloliddin Manguberdiga qarshi yuborgan 20 minglik qo‘shin qayerda bo‘lib o‘tgan jangda tor-mor keltiriladi?
A) Qandahor yaqinida B) Hirot yaqinida
C) Niso yaqinida **D) Basra yaqinida**

65. XIII asr boshida Xorazm juda keng maydonni egallagan davlatga aylangan edi. Uning janubi-sharqiy hududlari qaysi hududdan o‘tgan?
A) Dashti Qipchoqdan B) Kaspiy dengizi sohillaridan
C) G‘azna viloyatidan D) Yettisuvdan

66. Quyidagi qaysi o‘zbek davlatida otliq deb ataluvchi yer egaligining shakli bo‘lgan?
A) Buxoro xonligi C) Buxoro amirligi
B) Xiva xonligi D) Qo‘qon xonligi

67. XVII asrda qaysi ashtarxoniy hukmdor davrida Xiva xonlarining Buxoro xonligiga hujumlari kuchaygan?
A) Abulfayzxon B) Nodir Muhammad
C) Abdulazizxon D) Imomqulixon

68. Ma'lumki, Farg'ona viloyati norozilik harakatlarining markaziga aylanishi ehtimoli kuchayganini sezgan podsho hukumati maxsus komissiya tuzib vaziyatni o'rgangan. Ushbu komissiya xulosasiga ko'ra, norozilikka nima sabab bo'lgan?
A) viloyatda paxta ekishning keng ko'lamda avj oldirilishi natijasida boshqa ekinlarning kamayib ketganligi
B) xonlikning tugatilishi va milliy an'analarning cheklanganligi
C) jamoa yerlarining davlat tasarrufiga o'tkazilganligi
D) vodiyga rus aholisining ko'plab ko'chirilganligi

69. Quyidagilardan Turkiston o'lkasida podsho hukumati harbiy siyosatining asosini tashkil etgan omillarni ko'rsating.
1) mahalliy aholini qurolsizlantirish; 2) mahalliy aholiga harbiy majburiyatlarni yuklash; 3) mahalliy aholini vaqti-vaqti bilan harbiy xizmatga jalb qilish; 4) mahalliy aholida qurolli kurash uchun har qanday umidni yo'qotish; 5) jangarilik unsurlarini bostirish; 6) qadimiy jangovor an'analarni tag-tomiri bilan tugatish.
A) 1, 2, 3, 6 B) 2, 3, 5, 6
C) 1, 3, 4, 6
D) 1, 4, 5, 6

70. Quyidagi qaysi davrda kulolchilik va to'quvchilik kashf etildi?
A) mil.avv. 40-12-mingyillikda
B) mil.avv. 6-4-mingyillikda
C) mil.avv. 12-7-mingyillikda
D) mil.avv. 100-40-mingyillikda

71. Angliya va Fransiya o'rtasidagi "Yuz yillik urush"ning tugashi qaysi fransuz qiroli davriga to'g'ri keladi?
A) Karl VII B) Lyudovik XI C) Lyudovik IX
D) Karl V

72. Quyida nomlari keltirilgan hujjatlarni ular qabul qilingan yillariga qarab to'g'ri xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan javobni belgilang.*
1) «Qonunlarning buyuk to'plami»; 2) «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»; 3) «Taxt vorisligi to'g'risida bill» (Angliya); 4) «100 moddali farmon».
A) 3, 1, 4, 2 B) 4, 3, 1, 2 C) 4, 2, 3, 1
D) 3, 4, 1, 2

73. Quyidagi jumlalar qaysi rus elchisinig esdaligida qayt etilgan?
"Agar Xiva xoni Sherg'oziyxon yo'qotilsa, bu yerda tinchlik o'rnatiladi va hamma yo'llar ochiq bo'ladi. Rossiya Sherg'oziyxonga qarshi kuchlarni qo'llab-quvvatlashi foydali bo'ladi".
A) F.Benevini B) I.Xoxlov C) N.Muravyov
D) N.Ignatyev

74. Quyidagi voqealar to'g'ri xronologik ketma-ketlikda ko'rsatilgan javobni aniqlang.
1) Rossiya va Italiya o'rtasida Bolqon yarim orolidagi o'z manfaatlarini quvvatlovchi bitim imzolandi; 2) Italiya Fransiyaning Marokashga bo'lgan huquqlarini tan oldi; 3) Milanda 5 kunlik barrikada janglariga aylanib ketgan umumiy ish tashlash yuz berdi; 4) Fransiya G'arbiy Sudanni bosib oldi.
A) 4, 2, 3, 1 B) 1, 3, 4, 2 C) 3, 4, 1, 2
D) 4, 3, 2, 1

75. To'g'ri ma'lumotni toping.
A) mil.avv. III asrda Sidhartha Gautama davrida Maurya davlati yuksak pog'onaga ko'tarilgan
B) mil.avv. VII-VI asrlarda Malla, Koshala, Magadha davlatlari vujudga kelgan
C) mil.avv. VI asrda Chandragupta buddaviylik diniga asos solgan
D) Maurya davlatiga sarkarda Ashoka asos slogan

76. Moskva knyazi Dmitriy Iavnovich 1378-yilda qayerda mo'g'ullar ustidan g'alabaga erishdi?
A) Don daryosi bo'yida B) Chud ko'li atrofida
C) Voje daryosi bo'yida D) Kulikova maydonida

77. Nechanchi yillarda Gonduras, Salvador va Nikaragua Buyuk Markaziy Amerika Respublikasiga birlashgan?
A) 1897-1898-yillarda B) 1890-1892-yillarda
C) 1876-1880-yillarda **D) 1895-1896-yillarda**

78. Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya davlatlari tomonidan 1889-1913-yillarda taqsimlanib olingan hududlarni aniqlang.
A) Qizil dengiz bo'yi va Somali yarimoroli
B) Chad ko'li havzasidagi yerlar
C) Eritreya va Chad ko'li havzasidagi yerlar
D) Qizil dengiz bo'yi va G'arbiy Afrika

79. Quyidagi hukmdorlar va ular hukmronlik davlatlari bilan mos ravishda belgilang.
1) Diodot, Demetriy; 2) Salavk, Antiox; 3) Kir II, Doro I; 4) Chandragupta, Ashoka. a) Maurya davlati; b) Fors davlati; c) Salavkiylar davlati; d) Yunon-Baqtriya podsholigi.
A) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c B) 1-b; 2-a; 3-c; 4-d
C) 1-c; 2-d; 3-a; 4-b **D) 1-d; 2-c; 3-b; 4-a**

80. Xorazmni IV-X asrlarda qaysi sulola boshqargan?
A) siyovushlar B) anushteginiylar
C) afrig'iylar D) qo'ng'irotlar

81. Xiva xonligini boshqargan qo'ngirotlar sulolasining quyidagi hukmdorlarni hukmronlik yillariga qarab to'g'ri xronologik ketma-ketlikda berilgan javobni toping.
1) Muhammad Rahimxon I; 2) Eltuzatarxon;
3) Muhammad Aminxon; 4) Olloqulixon;
5) Muhammad Rahimxon II.
A) 2, 3, 1, 5, 4 B) 2, 1, 3, 4, 5 C) 1, 2, 3, 4, 5
D) 2, 1, 4, 3, 5

82. 1892-yildan boshlab Rossiyadan o'zboshimchalik bilan ko'chib kelgan kishilar ham ma'muriyat ruxsati bilan ko'chirilganlarga berilgan imkoniyatlardan foydalanishi mumkinligi e'lon qilindi. Bu qanday oqibatga olib keldi?
A) ko'chib keluvchilar sonining yanada ko'payishiga
B) keluvchilar sonining kamayishiga

C) avval kelganlarning yerlari yangi ko‘chib kelganlarga berildi
D) aholining bir qismi Rossiyaga qaytib ketdi

83. Toshkentda F.Xo‘jayev boshchiligida «Yosh buxorolik inqilobchilar partiyasi Turkiston Markaziy byurosi» qachon tashkil etilgan?
A) 1919-yil martida **B) 1920-yil yanvarida**
C) 1918-yil fevralida D) 1922-yil yanvarida

84. Quyidagi fransuz qirollarining faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni belgilang.
1) Lyudovik IX; 2) Karl V; 3) Filipp IV; 4) Karl VIII.
a) yagona qo‘mondonlik joriy etib, uning vakolatlarini kengaytirgan; b) mamlakat markazlashuvini nihoyasiga yetkazdi; c) so‘nggi salib yurishlarini amalga oshirdi; d) ilk bor General shtatlarni chaqirdi.
A) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b **B) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b**
C) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b

85. Quyidagi voqealar sodir bo‘lgan yillariga qarab to‘g‘ri xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan javobni toping.
1) Yaponiya Xitoyning noroziligiga qaramay Ryukyu orolini bosib oldi; 2) Yaponiya Janubiy Saxalin hisobiga Kurill orollarini Rossiyadan ajratib, o‘ziga qo‘shib oldi; 3) Koreya ochiq mamlakat deb e’lon qilindi.
A) 1, 3, 2 **B) 2, 3, 1** C) 3, 2, 1 D) 1, 2, 3

86. Ingliz dramaturgi Xristofor Morloning “Buyuk Temur” nomli sahna asari qaysi asrda yaratilgan?
A) XVII asr **B) XVI asr** C) XV asrda
D) XIX asrda

87. Shayboniylar davlatida (Buxoro) adolat mezonlariga amal qilinishini kim nazorat qilgan?
A) dodhoh B) muhtasib C) mehtar D) inoq

88. Chor Rossiyasi boshqaruvi davrida Turkiston o‘lkasida turli volostlar va uyezdlar aholisi o‘rtasida yuzaga kelgan bahsli ishlarni hal qilish ishi sud tizimining qaysi bosqichi vakolatiga kirgan?
A) Xalq sudlari qurultoyi
B) Qozi va biy sudlari
C) Xalq sudyalari favqulodda qurultoyi
D) General-gubernatorlik devonining sudlov bo‘limi

89. Yangi Bobil va Misr Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan yillarni belgilang.
A) mil.av. 539- va mil.av. 525-yillar
B) mil.av. 558- va mil.av. 525-yillar
C) mil.av. 558- va mil.av. 539-yillar
D) mil.av. 539- va mil.av. 522-yillar

90. Inglizlar Bengaliyani bosib olgan yili ... .
A) Sin sulolasi hukmronligi o‘rnatildi
B) Sin sulolasi Mo‘g‘uliston va Qashqar egallandi
C) Sin sulolasi bandargohlarni tashqi savdo uchun yopiq deb e’lon qildi
D) Nepal Sin sulolasi hukmronligini tan oldi

91. U ishlab chiqarish kuchlarining rivojiga to‘sqinlik qiluvchi qonun va tartiblarni bekor qildi. Davlat dunyoning barcha davlatlari uchun ochib qo‘yildi. Mamlakatda modernizatsiyalash boshlandi. Ushbu jumlalar qaysi tarixiy shaxs haqida?
A) Oda Nobunaga B) Tokugava I **C) Mutsuxito**
D) Yosimune

92. To‘g‘ri ma’lumotni toping.
A) 1876-yilda Toshkentda Turkiston muzeyi tashkil etilgan
B) 1893-yilda Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi tashkil etilgan
C) 1895-yilda O‘rta Osiyo Olimlar jamiyati mablagi yo‘qligi sababli faoliyatini to‘xtatgan
D) 1870-yilda Arxeologiya havaskorlari to‘garagi tashkil etilgan

93. 1885-yilda Hindiston Milliy Kongressi qaysi shaharda tashkil topgan?
A) Madras shahrida B) Dehli shahrida
C) Bombey shahrida D) Kalkutta shahrida

94. VII asrning birinchi yarmida qaysi davlatlar o‘rtasida savdo-elchilik munosabatlari faollashgan?
A) G‘arbiy Turk xoqonligi va Eftaliylar
B) G‘arbiy Turk xoqonligi va Xitoy
C) Sharqiy Turk xoqonligi va Xitoy
D) Sosoniylar va Turk xoqonligi

95. Quyidagi qaysi asar Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari tarixining islom tarqalishidan to 1231-yilgacha bo‘lgan davri haqida ma’lumot beradi?
A) «Ravzat us-safo» B) «Tarixi arba’ ulus»
C) «Tarixi jahonkushoy» **D) «Al-Komil fit-tarix»**

96. Eneolit davridan boshlab…
1) O‘rta Osiyo janubida sun’iy sug‘orma dehqonchilik vujudga keldi; 2) xom g‘ishtdan ko‘p xonali uylar qurila boshlandi; 3) kulolchilik charxi va g‘ildirak kashf etildi; 4) kulolchilik xumdonlaridan foydalana boshlandi; 5) Jarqo‘ton manzilgohi yuksak taraqqiyotga erishdi.
A) 1, 4, 5 B) 1, 3, 5 **C) 1, 2, 4** D) 2, 3, 4

97. Sharqiy slavyan qabilalari: drevlyanlar, rodimichlar, tiverlar, dregovichlar, vyatichlar, sevoryanlar ilk o‘rta asrlarda qaysi daryo havzasida yashaganlar?
A) Dnepr B) Visla C) Ural D) Don

98. To‘rtinchi salib yurishida salibchilar Venetsiyaning savdodagi asosiy raqibi bo‘lgan qaysi davlatga qarshi urush boshlashga majbur bo‘lganlar?
A) Misrga B) Gretsiyaga **C) Vizantiyaga,**
D) Arabistonga

99. Ilk paleolit davri odamlarining nomlanishi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang.
A) avstralopitek, zinjantrop, pitekantrop neandertal
B) avstralopitek, zinjantrop, kromanyon, sinantrop
C) avstralopitek, zinjantrop, pitekantrop, sinantrop
D) avstralopitek, neandertal, sinantrop, kromanyon

100. Ma'lumki, AQSHda fuqarolar urushi qullchilikni bekor qilgan, bo'lsa-da, qora tanlilar tenglikka erisha olmadilar. Mamlakatda segregatsiya tartibi saqlanib qoldi. Qarzdor qora tanliga qanday jazo berilgan?
A) U yashab turgan joyidan haydab yuborilar edi.
B) Uning oila a'zolaridan biri qaytadan qulga aylantirilishi kerak edi.
C) barcha oila a'zolari bilan 5 yil davomida ishlab berishi kereik edi.
D) istalgan kishiga shartnoma asosida ishchi qilib berilishi mumkin edi.



Tarix fanini INNOVATSIYALAR bilan o'rganing!

- Repetitor: **Jalol BOLTAYEV**
- Telefon: **(97) 299 00 66**
- Manzil: **Xorazm viloyati**
- Telegram kanal: **@TESTLIDER**

Telegram kanalimizga a'zo bo'lish uchun quyidagi ko'k yozuvning ustiga bosing!

TESTLIDER







